

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI VA SHARTLARI

Karimova Zulfiya Abduraxmanovna
Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi

Alfraganus universiteti, o'qituvchi.

Alfraganus universiteti, talaba.

e-mail: karimova.z@afu.uz **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0008-8370-8771>

e-mail: hojiyasaidaliyeva@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0003-8300-6570>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning samarali metodlari va pedagogik-psixologik shartlari yoritilgan. O'yin, mashq, suhbat, rollarga bo'lib o'qish, modellashtirish, rag'batlantirish hamda muqobil kommunikativ tizimlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, exolaliyadan kommunikativ rivojlanish vositasi sifatida foydalanish, kommunikativ bayonotlarni mustahkamlash va kundalik hayotiy vaziyatlardan ta'lim jarayonida foydalanishning amaliy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari autizmli bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda individual yondashuv va tabiiy kommunikativ muhit yaratish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Autizm spektri buzilishi, kommunikativ ko'nikmalar, exolaliya, modellashtirish, mustahkamlash, hamrohlik qiluvchi ta'lim, ijtimoiy moslashuv.

МЕТОДЫ И УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Каримова Зульфия Абдурахмановна
Сайдалиева Хожия Абдужалил кизи

Университет Alfraganus, преподаватель.

Университет Alfraganus, студентка.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются эффективные методы и педагогические и психологические условия развития коммуникативных навыков у детей с расстройствами аутистического спектра. Анализируется важность игр, упражнений, бесед, ролевых игр, моделирования, стимуляции и использования альтернативных систем коммуникации. Также рассматриваются практические аспекты использования эхολалии как средства развития коммуникативных навыков, укрепления коммуникативных высказываний и использования ситуаций из повседневной жизни в образовательном процессе. Результаты исследования показывают, что индивидуальный подход и создание естественной коммуникативной среды важны для развития коммуникативных навыков у детей с аутизмом.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, коммуникативные навыки, эхολалия, моделирование, подкрепление, поддерживающее обучение, социальная адаптация.

METHODS AND CONDITIONS FOR DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDER

Karimova Zulfiya Abduraxmanovna
Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi

Alfraganus University, Lecturer.

Alfraganus University, Student.

Abstract.

This article discusses effective methods and pedagogical and psychological conditions for developing communication skills in children with autism spectrum disorders. The importance of games, exercises, conversations, role-playing, modeling, stimulation, and the use of alternative communication systems is analyzed. Also, practical aspects of using echolalia as a means of communicative development, strengthening

communicative statements, and using everyday life situations in the educational process are considered. The results of the study show that an individual approach and the creation of a natural communicative environment are important in developing communication skills in children with autism.

Keywords: Autism spectrum disorders, communication skills, echolalia, modeling, reinforcement, supportive education, social adaptation.

Kirish. Autizm spektri buzilishi (ASB) zamonaviy maxsus pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ushbu holatga ega bo'lgan bolalarda ijtimoiy o'zaro ta'sir, kommunikativ faoliyat va xulq-atvor rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Autizmli bolalarning aksariyatida muloqotga kirishish, o'z ehtiyoj va istaklarini ifodalash, suhbatni boshlash hamda davom ettirish kabi kommunikativ ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shu sababli, ularda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish korreksion-pedagogik yordamning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ ko'nikmalar bolaning nafaqat nutqiy rivojlanishi, balki ijtimoiy moslashuvi, mustaqil faoliyat yuritishi va atrof-muhit bilan samarali munosabat o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etadi. Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ qiyinchiliklar turlicha namoyon bo'lishi mumkin: ayrim bolalarda nutqning kechikishi yoki mavjud emasligi kuzatilsa, boshqalarida nutq mavjud bo'lsa-da, undan ijtimoiy maqsadda foydalanish, suhbatdosh bilan fikr almashish va vaziyatga mos muloqot qilishda qiyinchiliklar uchraydi.

Zamonaviy korreksion pedagogikada autizmli bolalarning kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli metod va texnologiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, o'yin metodlari, maxsus mashqlar, suhbat, rolli faoliyat, modellash, rag'batlantirish, bixevioristik yondashuvlar, muqobil kommunikatsiya tizimlari hamda tabiiy kommunikativ vaziyatlardan foydalanish samarali usullar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu metodlarning asosiy maqsadi bolada muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mavjud nutqiy imkoniyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyatini oshirishdan iborat.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashda individual yondashuv alohida ahamiyatga ega. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishlari, kommunikativ ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlari hisobga olingan holda korreksion ta'sirni tashkil etish zarur. Ayniqsa, bolaning kundalik hayotida yuzaga keladigan tabiiy vaziyatlardan foydalanish kommunikativ ko'nikmalarning amaliy ahamiyatini oshiradi va ularni real ijtimoiy sharoitlarda qo'llash imkonini beradi.

Kommunikativ rivojlanish jarayonida exolaliyadan maqsadli foydalanish, kommunikativ urinishlarni mustahkamlash hamda muqobil kommunikativ vositalarni qo'llash ham muhim o'rin tutadi. Mazkur yondashuvlar bolaning o'z fikrini ifodalash, ehtiyojlarini bildirish va atrofdegilar bilan o'zaro munosabatga kirishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish masalasi zamonaviy maxsus pedagogika, psixologiya va neyropsixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo autizmning kelib chiqishi, nutq rivojlanishining o'ziga xosligi, ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonlarining buzilishi hamda korreksion-pedagogik yordamning samarali usullarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Autizm spektri buzilishlarining biologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ushbu holatning markaziy asab tizimi faoliyati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. M. L. Bauman va T. L. Kemper autizmli bolalar miyasining anatomik tuzilishidagi ayrim o'ziga xosliklarni tahlil qilib, ushbu buzilishlarda nerv tizimining rivojlanish jarayonidagi farqlar mavjudligini ko'rsatganlar. Olimlarning fikricha, autizm faqat xulq-atvor yoki psixologik xususiyatlar bilan chegaralanib qolmay, balki murakkab neyrobiologik omillar bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish buzilishidir [1, 145–152-b.]. Bu qarash kommunikativ rivojlanishdagi qiyinchiliklarni tushuntirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Autizmli bolalarda kommunikativ faoliyatning buzilishi masalasi G. Davson tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Muallif autizmli bolalarda nutq rivojlanishi, ijtimoiy muloqot va kognitiv jarayonlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, kommunikativ rivojlanishdagi kamchiliklar bolaning atrof-muhit bilan munosabatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, autizmli bolalar bilan ishlashda faqat nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish emas, balki ijtimoiy muloqotga bo'lgan ehtiyoj va motivatsiyani shakllantirish ham muhim hisoblanadi [2, 301–308-b.].

Autizm spektri buzilishlarida nutq va til rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan E. H. Lenneberg til rivojlanishining biologik asoslarini tadqiq qilgan. Olim tilni o'zlashtirish jarayoni bolaning umumiy biologik va psixologik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatgan. Uning nazariyasiga ko'ra, nutq shakllanishi uchun bolaning ijtimoiy tajribasi, atrofdegilar bilan muloqoti va kommunikativ ehtiyojlari muhim ahamiyatga ega [4, 125–130-b.]. Mazkur yondashuv autizmli bolalarda kommunikativ faollikni oshirishda tabiiy muloqot muhitining zarurligini asoslaydi.

Autizmli bolalarda nutqni tushunish, matn mazmunini anglash va verbal faoliyatning rivojlanishi masalalari U. Frith va M. Snowling tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Tadqiqotchilar autizmli bolalarda nutqiy axborotni qayta ishlash jarayonlari o'ziga xos tarzda kechishini, ayrim hollarda tovush yoki so'z shakliga e'tibor kuchli bo'lsa-da, mazmuniy tushunish jarayoni yetarlicha rivojlanmaganligini aniqlaganlar. Shu sababli, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida faqat so'zlarni takrorlash emas, balki ularning amaliy vaziyatdagi ma'nosini anglashga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish zarurligi qayd etiladi [3, 487–493-b.].

N. J. Minshew tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda autizmli shaxslarning kognitiv faoliyati, axborotni qayta ishlash jarayonlari va ijtimoiy bilish xususiyatlari o'rganilgan. Muallif autizmli miya faoliyatining ayrim tizimlarida funksional va strukturaviy farqlar mavjudligini ko'rsatib, bu holat kommunikativ xatti-harakatlarning shakllanishiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari autizmli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv va bolaning kognitiv imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [5, 317–322-b.].

S. Ozonoff va D. Strayer autizmli bolalarda boshqaruv funksiyalarining rivojlanishini tadqiq qilib, o'zini nazorat qilish, vaziyatga moslashish va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishdagi qiyinchiliklarni aniqlaganlar. Ushbu xususiyatlar kommunikativ jarayonlarda ham namoyon bo'lib, bola suhbatni boshlash, davom ettirish yoki o'z ehtiyojlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda maxsus mashqlar, modellastirish va bosqichma-bosqich o'rgatish metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi [6, 67–73-b.].

J. M. Rumsey autizmli shaxslarning muammoli vaziyatlarni hal qilish va konseptual fikrlash jarayonlarini o'rganib, yuqori verbal imkoniyatlarga ega bo'lgan autizmli shaxslarda ham ijtimoiy muloqotning murakkab shakllari saqlanib qolishi mumkinligini ko'rsatgan. Muallif kommunikativ rivojlanishda nutqning mavjudligi bilan bir qatorda, undan ijtimoiy maqsadga foydalanish qobiliyati ham muhim ekanligini ta'kidlaydi [7, 165–172-b.]. Bu fikr autizmli bolalarda dialogik nutq, kommunikativ motivatsiya va ijtimoiy o'zaro ta'sirni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Autizmli bolalarda kommunikativ xulq-atvorni shakllantirishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati S. E. Tomkins tomonidan ishlab chiqilgan emotsional rivojlanish nazariyalarida ham aks etgan. Muallif inson xatti-harakatlarida hissiy tajriba va ijtimoiy munosabatlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv autizmli bolalarda kommunikativ motivatsiyani shakllantirishda ularning hissiy holati, qiziqishlari va individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi [8, 215–220-b.].

Shuningdek, zamonaviy korreksion pedagogikada autizmli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bixevioristik metodlar, muqobil kommunikatsiya tizimlari, vizual tayanchlardan foydalanish, modellastirish, rag'batlantirish va tabiiy mustahkamlash usullari keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuvlar bolaning mavjud imkoniyatlariga tayangan holda uning mustaqil kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda biologik, psixologik va pedagogik omillar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilarning umumiy fikriga ko'ra, samarali korreksion yordam bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, tabiiy kommunikativ vaziyatlardan foydalanish, motivatsiyani oshirish hamda nutqiy va noverbal kommunikatsiya vositalarini uyg'un qo'llash asosida tashkil etilishi lozim.

Metodologiya. Mazkur maqolada autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoniga oid ilmiy-nazariy qarashlar va korreksion-pedagogik yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, autizmli bolalarda kommunikativ rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan o'yin metodlari, bixevioristik yondashuvlar, muqobil kommunikatsiya tizimlari, modellastirish, rag'batlantirish va tabiiy mustahkamlash usullarining pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur metodologik yondashuvlar asosida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali shartlari va amaliy usullari yoritildi.

Natija

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish murakkab va tizimli korreksion-pedagogik jarayonni talab qiladi. Ushbu jarayonda bolaning individual xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi, qiziqishlari hamda ijtimoiy faolligi hisobga olinadi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o'yin, mashq, suhbat, rolli faoliyat, modellastirish, rag'batlantirish hamda muqobil kommunikativ tizimlardan foydalanish samarali metodlar sifatida qaraladi.

O'yin metodlari autizmli bolalarda muloqotga bo'lgan ehtiyoj va ijtimoiy motivatsiyani shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'yin jarayonida bola tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatga kirishishni, navbat kutishni, faoliyatni bo'lishishni hamda o'z istaklarini ifodalashni o'rganadi. Korreksion ishlar jarayonida taqlidiy o'yinlar, davra o'yinlari, navbat almashishga asoslangan o'yinlar, rolli o'yinlar va ko'zgu oldidagi mashqlar kabi usullardan foydalaniladi. Bunday faoliyat shakllari bolaning kommunikativ faolligini tabiiy ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda maxsus mashqlar ham katta ahamiyatga ega. Verbal taqlid, rasmlarni izohlash, kartochkalar va vizual materiallar bilan ishlash orqali bolalarda savollarga javob berish, savol berish, voqealarni sharhlash, o'z fikr va hissiyotlarini ifodalash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ushbu mashqlar dialogik nutqni shakllantirish hamda bolaning nutqdan amaliy vaziyatlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Dialogik nutqi shakllangan bolalar bilan ishlashda suhbat metodidan foydalanish samarali natija beradi. Suhbat davomida bola fikr almashish, tinglash, javob qaytarish va muloqotni davom ettirish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, rollarga bo'lib o'qish usuli ham dialogik nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod bolalarda turli ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va ularga mos kommunikativ xatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda nutqiy faollikni oshirishda exolaliyadan ham maqsadli pedagogik vosita sifatida foydalanish mumkin. Exolaliya — eshitilgan so'z yoki iboralarni takrorlash holati bo'lib, korreksion jarayonda undan bolaning nutqiy namunalarni o'zlashtirishi va keyinchalik mustaqil kommunikativ faoliyatda qo'llashi uchun foydalaniladi. Nikolskaya, Bayenskaya va Libling tadqiqotlarida exolalik nutqni to'g'ri pedagogik yo'naltirish orqali bolaning kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirish mumkinligi ko'rsatilgan [1].

Autizmli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda bixevioristik yondashuv asosidagi metodlar ham keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar qatoriga modellashtirish, rag'batlantirish, ko'rsatmalar berish, yordam ko'rsatish va mustahkamlash usullari kiradi. Modellashtirish jarayonida bola kattalarning kommunikativ xatti-harakatlarini kuzatadi, ularga taqlid qiladi va keyinchalik ushbu ko'nikmalarni boshqa vaziyatlarda qo'llashni o'rganadi.

Rag'batlantirish usuli esa bolaning kommunikativ harakatlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Bunda bolaning to'g'ri bajarilgan kommunikativ harakati ijobiy baholanadi va mustahkamlanadi. Mazkur yondashuv bolaning muloqotga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda yangi kommunikativ shakllarning shakllanishiga yordam beradi.

Kommunikativ rivojlanishda muqobil kommunikativ tizimlardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Ayrim autizmli bolalarda og'zaki nutq yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli piktografik belgilar, rasmlar, imo-ishoralalar va vizual vositalardan foydalanish zarur bo'ladi. Verbal va nonverbal kommunikatsiya vositalarining uyg'un qo'llanilishi bolaning o'z ehtiyojlarini ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda mustaqil muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi bir qator pedagogik va psixologik shartlarga bog'liq. Eng muhim shartlardan biri bolaning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olishdir. Chunki ko'plab autizmli bolalarda kommunikativ faollikning pastligi ichki muloqot motivatsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, korreksion mashg'ulotlarda bolaning sevimli o'yinchoqlari, faoliyat turlari va qiziqishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, bolaga so'rov bildirishni o'rgatishda uning yoqtirgan predmetlari yoki o'yinchoqlaridan foydalanish, savollarga javob berish ko'nikmasini shakllantirishda esa unga qiziqarli bo'lgan rasmlar va kitoblardan foydalanish samarali natija beradi. Bunday yondashuv bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi va kommunikativ jarayonga qiziqishini oshiradi.

Kommunikativ rivojlanishda ko'rsatmalardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Autizmli bolalarda ko'pincha exolalik nutq kuzatiladi, bunda bola eshitgan so'z yoki iborani ma'nosini to'liq anglamagan holda takrorlashi mumkin. Korreksion jarayonda ushbu xususiyatdan foydalanib, bolaga muayyan vaziyatga mos kommunikativ iboralarini o'rgatish mumkin. Masalan, yordam so'rash, o'yinga taklif qilish yoki rad javobini bildirish kabi nutqiy shakllar maxsus ko'rsatmalar yordamida shakllantiriladi.

Dastlab bola berilgan nutqiy namunalarni mexanik ravishda takrorlashi mumkin, biroq bir xil kommunikativ vaziyatlarda ushbu iboralarining muntazam qo'llanilishi natijasida ularning mazmunini anglash va ulardan mustaqil foydalanish qobiliyati rivojlanadi. Shu sababli, korreksion ish jarayonida nutqiy namunalarni tabiiy vaziyatlar bilan bog'lash muhim hisoblanadi.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda mustahkamlash tamoyili ham katta ahamiyatga ega. Bolaning har qanday kommunikativ urinishini qo'llab-quvvatlash uning muloqotga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Ayniqsa, tabiiy mustahkamlash usuli samarali bo'lib, bunda bolaning kommunikativ harakati bevosita uning ehtiyoji yoki istagini amalga oshirish bilan bog'lanadi.

Shunday qilib, autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, individual ta'lim strategiyasi, tabiiy kommunikativ muhit yaratish va zamonaviy korreksion metodlardan foydalanish zarur. Bu usullar bolaning nafaqat nutqiy imkoniyatlarini, balki ijtimoiy moslashuv hamda mustaqil muloqot qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar bolaning nutqiy imkoniyatlari, ijtimoiy tajribasi va individual ehtiyojlariga mos ravishda tanlanadi. Korreksion-pedagogik jarayonda birgina metoddan foydalanish yetarli natija bermaydi, balki turli usullarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali bolaning muloqotga bo'lgan qiziqishi, nutqiy faolligi va ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalari rivojlantiriladi. Quyidagi jadvalda autizmli bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda samarali hisoblangan asosiy metodlar, ularning mazmuni va pedagogik ahamiyati keltirilgan.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish metodlarining tavsifi

Nº	Metod usullar	Mazmuni	Kommunikativ rivojlanishga ta'siri
1	O'yin metodlari	Taqlidiy, rolli, davra, navbat almashishga asoslangan o'yinlar orqali bolaning faol muloqotga jalb etilishi	Ijtimoiy motivatsiyani oshiradi, tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro munosabat o'rnatish ko'nikmasini rivojlantiradi
2	Maxsus mashqlar	Verbal taqlid, rasmlarni sharhlash, kartochkalar bilan ishlash, savol-javob mashqlari	Nutqiy faollikni oshiradi, fikr bildirish, savol berish va javob qaytarish ko'nikmalarini shakllantiradi
3	Suhbat metodi	Bolaning mavjud nutqiy imkoniyatlariga asoslangan dialogik muloqotni tashkil etish	Dialogni boshlash, davom ettirish va suhbatdosh fikrini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi
4	Rollarga bo'lib	Turli ijtimoiy vaziyatlarni	Ijtimoiy vaziyatlarni tushunish

	o'qish	aks ettiruvchi matnlar asosida rollarni bajarish	va ularga mos kommunikativ xatti-harakatlarni shakllantiradi
5	Exolaliyadan foydalanish	Bola takrorlaydigan so'z va iboralarni kommunikativ maqsadga yo'naltirish	Nutqiy namunalarni o'zlashtirish va ularni amaliy muloqotda qo'llash imkoniyatini yaratadi
6	Modellashtirish	Katta insonning kommunikativ xatti-harakatlarini namoyish etishi va bolaning unga taqlid qilishi	To'g'ri kommunikativ xulq namunalarni egallashga yordam beradi
7	Rag'batlantirish va mustahkamlash	To'g'ri kommunikativ harakatlarni ijobiy baholash va qo'llab-quvvatlash	Muloqotga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, kommunikativ urinishlarni ko'paytiradi
8	Muqobil kommunikatsiya tizimlari	Rasmlar, piktogrammalar, imo-ishoralalar va vizual vositalardan foydalanish	Nutqi cheklangan bolalarda ehtiyoj va istaklarni ifodalash imkoniyatini kengaytiradi
9	"Hamrohlik qiluvchi ta'lim" metodi	Kundalik hayotiy vaziyatlardan foydalanib kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish	O'zlashtirilgan ko'nikmalarni real hayot sharoitida qo'llashga yordam beradi

Jadvalda keltirilgan metodlar autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ rivojlanishning turli jihatlarni qamrab oladi. Xususan, o'yin va rolli faoliyatlar bolaning muloqotga bo'lgan tabiiy ehtiyojini shakllantirsa, maxsus mashqlar hamda suhbat metodlari nutqiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modellashtirish, rag'batlantirish va mustahkamlash kabi bixevioristik usullar bolaning kerakli kommunikativ xatti-harakatlarni egallashiga yordam beradi. Ushbu metodlarda bolaning har bir kommunikativ harakati qo'llab-quvvatlanib, asta-sekin mustaqil muloqot qilish ko'nikmasiga aylantiriladi.

Muqobil kommunikatsiya vositalari esa og'zaki nutqi yetarli darajada rivojlanmagan bolalar uchun ayniqsa muhim hisoblanadi. Vizual belgilar, rasmlar va imo-ishoralardan foydalanish bolaning o'z ehtiyojlarini ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishini osonlashtiradi.

"Hamrohlik qiluvchi ta'lim" metodining afzalligi shundaki, unda kommunikativ ko'nikmalar sun'iy tashkil etilgan mashg'ulotlardagina emas, balki bolaning kundalik hayotida yuzaga keladigan tabiiy vaziyatlar asosida shakllantiriladi. Natijada bola o'rgangan nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalarini real hayot sharoitida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashda metodlarni kompleks qo'llash, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish va tabiiy kommunikativ muhit yaratish eng samarali pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

Muhokama

Kommunikativ ifodalarni mustahkamlash ham muhim shartlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikatsiyaga oid har qanday urinishni, hatto juda sust bo'lsa ham, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bolaning motivatsiyasini oshiradi. Bu esa kommunikativ bayonotlar sonining ko'payishiga va, natijada, ularning sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi.

Mustahkamlashning ikki turi mavjud:

1. Sun'iy (maxsus tashkil etilgan) mustahkamlash.
2. Tabiiy mustahkamlash.

Sun'iy mustahkamlash sifatida to'g'ri javobni rag'batlantirish maqsadida konfetlar, karamel, mayiz, chipslar va boshqa mukofotlardan foydalanish mumkin.

Masalan, pedagog bolaga biror predmet tasvirlangan rasmni ko'rsatib: **"Bu nima?"** deb so'raydi. Bola: **"Bu shkaf."** deb javob beradi. Katta odam esa: **"To'g'ri."** deb aytib, bolaga konfet beradi. Ushbu misol sun'iy mustahkamlashning mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. Bu yerda mukofot (konfet) muloqot vaziyati bilan bevosita bog'liq emas va amaliy faoliyatning bir qismi hisoblanmaydi.

Bunday mustahkamlash odatda autizmlil bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan tuzilgan mashqlar hamda o'quv topshiriqlarini bajarishda qo'llaniladi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab bixevioristik dasturlar aynan shu turdagi mustahkamlashga asoslangan.

Tabiiy mustahkamlash esa, aksincha, muloqot jarayonining mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bola va kattaning birgalikdagi faoliyati tarkibiga kiradi.

Masalan, loto kartochkalari bilan o'ynash jarayonida pedagog kartochkani ko'rsatib: **"Bu nima?"** deb so'raydi. Agar bola to'g'ri javob bersa, mukofot sifatida pedagog kartochkani unga beradi va bola uni mos katakka joylashtiradi. Bu holatda kartochkaning o'zi mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi hamda amaliy faoliyat bilan uzviy bog'langan

bo'ladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ta'kidlashicha, tabiiy mustahkamlashdan foydalanish kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashda eng samarali usullardan biridir.

Korreksion ishlar tizimida kundalik hayotda tabiiy ravishda yuzaga keladigan vaziyatlardan foydalanish eng muhim shartlardan biridir.

Oldingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, agar kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni faqat qat'iy tuzilgan mashqlar va topshiriqlar asosida hamda faqat terapevtik mashg'ulotlar doirasida olib borilsa, uning samaradorligi yetarli darajada bo'lmaydi.

Bunday hollarda shakllanayotgan ko'nikmalar funksional ahamiyatga ega bo'lmay qoladi, kundalik ijtimoiy vaziyatlardan ajralib qoladi va bolalar tomonidan real hayotda qo'llanilmaydi.

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida korreksion ishlar davomida **"hamrohlik qiluvchi ta'lim"** metodidan foydalaniladi. Bu metod kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun tabiiy ravishda yuzaga keladigan vaziyat va hodisalardan foydalanishga asoslanadi.

Korreksion ishlar jarayonida o'quv topshiriqlari va mashqlar kundalik hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa bolaga shakllanayotgan kommunikativ ko'nikmalarni turli ijtimoiy vaziyatlarga ko'chirish va ulardan amaliy hayotda foydalanish imkonini beradi.

Ushbu shartni amalga oshirish uchun bola bilan birga bo'lgan kattalar har bir vaziyatni kommunikativ muloqotni tashkil etish uchun imkoniyat sifatida ko'rishlari kerak. Bu esa bolaning xulq-atvori va hissiy reaksiyalariga nihoyatda e'tiborli bo'lishni talab qiladi.

Agar kattalar bolaning biror narsaga qiziqayotganini yoki muloqot qilishga tayyorligini sezsa, ular kommunikativ jarayonni yo'lga qo'yish imkoniyatidan foydalanishlari lozim.

Quyida bir nechta amaliy misollar keltiriladi.

1-misol. Bola shkaf ustidagi to'pni olmoqchi

Siz bola shkaf ustida turgan to'pni olmoqchi bo'layotganini, ammo unga qo'li yetmayotganini ko'rdingiz.

Bu vaziyatda bolaning harakatlarini kuzatib, samimiy tabassum bilan unga qiziqish bildiring. Shunday qilingki, bolada sizga murojaat qilish istagi paydo bo'lsin. Bola sizga e'tibor qaratgach, qo'llaringizni to'p tomon cho'zib, uni olib berishga tayyor ekanligingizni ko'rsating va bolaga qarab turing.

Agar bola iltimosini ifodalashda qiynalsa, unga yordamchi ko'rsatma bering: **"To'pni ber", "To'pni olib ber"** va hokazo. Bola ushbu iborani takrorlagach, darhol uning iltimosini bajaring.

2-misol. Bola ko'chadagi itlarning o'yinini kuzatmoqda

Siz bolaning ko'chada o'ynayotgan itlarni qiziqish bilan kuzatayotganini ko'rdingiz.

Bu vaziyatga ham qiziqish bildiring: bolaning yoniga turing yoki cho'kkalab o'tiring, itlarning o'yinini birga kuzating va vaziyatni sharhlang: **"Itlar o'ynayapti."**

Ehtimol, bola bu gapni sizdan keyin takrorlaydi. Shunda unga ma'qullovchi nigoh bilan qarang va boshingizni yengil qimirlatib, uning javobini qo'llab-quvvatlang.

Agar bola gapni takrorlamasa, shu kabi strategiyani qo'llashda davom eting. Sizning e'tiboringiz va uning qiziqishlariga hurmat bilan yondashishingiz bolada siz aytgan iborani takrorlash istagini uyg'otadi.

Vaqt o'tishi bilan bola atrofdagi voqealarni mustaqil ravishda sharhlashni va o'z qiziqishlarini siz bilan bo'lishishni o'rganadi.

3-misol. Bola sayrga chiqish uchun oyoq kiyimini qidirmoqda

Siz bolaning sayrga chiqish uchun oyoq kiyimlarini qidirayotganini ko'rdingiz.

Bolaning muammosiga e'tibor bilan qarab turing. U sizga qaraganida, kerakli iborani aytib ko'rsating, masalan: **"Botinkalar qayerda?"**

Bola ushbu gapni takrorlagach, darhol oyoq kiyimlarini olib bering yoki ularning qayerdaligini ko'rsating. Shu tariqa uning kommunikativ murojaatini mustahkamlang. (Ta'riflangan misollar kommunikativ, ijtimoiy va kognitiv rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan bolalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin.)

Shunga o'xshash vaziyatlarni sun'iy ravishda ham tashkil etish mumkin.

Keltirilgan misollar kundalik hayotda tabiiy ravishda yuzaga keladigan vaziyatlardan foydalanish bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Muhimi, bunday vaziyatlarda bolaning kommunikativ bayonotlari tabiiy ravishda mustahkamlanadi. Mukofot sifatida bolaning nutqiy faolligi natijasi, ya'ni uning istagi yoki niyatining amalga oshishi xizmat qiladi.

Bu esa bolaga aytilgan so'z yoki iboraning muayyan natijaga olib kelishini tushunishga yordam beradi. Bola nutq yordamida boshqa insonlarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish va o'z maqsadiga erishish mumkinligini anglay boshlaydi.

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida bolaning har qanday muloqotga bo'lgan urinishini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Mustahkamlash usullari bolaning kommunikativ motivatsiyasini oshiradi, nutqiy faolligini kuchaytiradi hamda o'z ehtiyojlarini ifodalash ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Korreksion jarayonda sun'iy va tabiiy mustahkamlash usullaridan foydalaniladi. Shuningdek, kundalik hayotiy vaziyatlardan foydalanishga asoslangan **"hamrohlik qiluvchi ta'lim"** metodi bolaning shakllangan kommunikativ ko'nikmalarini real ijtimoiy muhitda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash va tabiiy vaziyatlardan foydalanish usullari

Nº	Metod va usul	Mazmuni	Qo'llash jarayoni	Kommunikativ rivojlanishga ta'siri
----	---------------	---------	-------------------	------------------------------------

1	Kommunikativ urinishlarni rag'batlantirish	Bolaning har qanday nutqiy yoki noverbal murojaatini qo'llab-quvvatlash	Bola so'z, imo-ishora yoki harakat orqali muloqot qilishga harakat qilganda unga ijobiy munosabat bildirish	Muloqotga bo'lgan qiziqishni oshiradi, kommunikativ faollikni kuchaytiradi
2	Sun'iy mustahkamlash	Maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolaning to'g'ri javobi yoki harakati uchun mukofot berish	To'g'ri javobdan so'ng shirinlik, rag'batlantiruvchi so'z yoki boshqa mukofotlardan foydalanish	Kerakli kommunikativ xatti-harakatlarni shakllantirish va takrorlashga yordam beradi
3	Tabiiy mustahkamlash	Kommunikativ harakatning bolaning real ehtiyoji yoki faoliyati bilan bog'lanishi	Bola kerakli so'zni aytganda yoki murojaat qilganda uning istagi amalga oshiriladi	Nutqning amaliy ahamiyatini anglashni shakllantiradi
4	"Hamrohlik qiluvchi ta'lim" metodi	Kundalik hayotda yuzaga keladigan tabiiy vaziyatlardan ta'limiy maqsadda foydalanish	O'yin, ovqatlanish, sayr, kiyinish kabi vaziyatlarda kommunikativ imkoniyatlarni yaratish	O'zlashtirilgan ko'nikmalarni real hayotga ko'chirish imkonini beradi
5	Verbal ko'rsatmalar (yordamchi nutqiy ko'rsatmalar)	Bolaga kerakli kommunikativ iboralarni namuna sifatida berish	"Yordam ber", "To'pni olib ber", "Qayerda?" kabi iboralarni takrorlashga yo'naltirish	Mustaqil nutqiy murojaat qilish ko'nikmasini rivojlantiradi
6	Tabiiy kommunikativ vaziyatlarni tashkil etish	Bola qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqadigan muloqot holatlarini yaratish	Bola xohlagan predmetga erishish, biror narsani so'rash yoki voqeani sharhlash jarayonida muloqotni tashkil etish	Kommunikatsiyaning maqsadga yo'naltirilganligini tushunishga yordam beradi
7	Qiziqishlarga asoslangan yondashuv	Bolaning sevimli predmetlari va faoliyatlaridan foydalanish	Sevimli o'yinchoq, mashg'ulot yoki mavzu orqali suhbat va murojaatlarni shakllantirish	Kommunikativ motivatsiyaning oshiradi va bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi
8	Vaziyatni sharhlash metodi	Atrofdagi voqea va hodisalarni nutq orqali izohlash	Katta inson bolaning e'tibor qaratgan narsasini nomlaydi va sharhlaydi ("Itlar o'ynayapti")	Lug'at boyligini oshiradi, atrof-muhit haqida fikr bildirishga o'rgatadi

Jadvalda keltirilgan usullar autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Kommunikativ urinishlarni muntazam ravishda rag'batlantirish bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Ayniqsa, bolaning kichik kommunikativ harakatlarini ham qo'llab-quvvatlash uning kelgusidagi nutqiy faolligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Sun'iy mustahkamlash korreksion mashg'ulotlarda ma'lum ko'nikmani shakllantirishning dastlabki bosqichlarida samarali qo'llaniladi. Bunda bola kerakli kommunikativ harakatni bajarganidan so'ng ijobiy rag'bat oladi. Biroq, uzoq muddatli natijaga erishishda tabiiy mustahkamlash muhimroq ahamiyat kasb etadi, chunki bunda kommunikatsiya bolaning real ehtiyoji va faoliyati bilan bevosita bog'lanadi.

"Hamrohlik qiluvchi ta'lim" metodining asosiy afzalligi shundaki, kommunikativ ko'nikmalar sun'iy tashkil etilgan mashg'ulotlardan tashqarida ham rivojlantiriladi. Bola kundalik hayot jarayonida so'z yoki imo-ishora yordamida o'z ehtiyojlarini ifodalash orqali kommunikatsiyaning amaliy ahamiyatini anglay boshlaydi.

Shuningdek, bolaning qiziqishlari asosida tashkil etilgan vaziyatlar kommunikativ motivatsiyani oshiradi. Masalan, bola istagan predmetini olish uchun murojaat qilishni, qiziqqan voqeasini sharhlashni yoki yordam so'rashni o'rganadi. Natijada kommunikativ ko'nikmalar faqat mashg'ulot jarayonida emas, balki bolaning kundalik ijtimoiy faoliyatida ham namoyon bo'la boshlaydi.

Xulosa

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish murakkab, ammo izchil tashkil etilgan korreksion-pedagogik faoliyat orqali samarali amalga oshiriladi. O'yin, mashq, suhbat, modellashtirish va muqobil kommunikativ vositalardan foydalanish bolalarning nutqiy hamda ijtimoiy faolligini oshiradi. Exolaliyadan maqsadli foydalanish hamda kommunikativ urinishlarni muntazam rag'batlantirish muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, kundalik hayotiy vaziyatlardan foydalanish shakllangan ko'nikmalarning real hayotga ko'chirilishini ta'minlaydi. Shu sababli, autizmli bolalar bilan ishlashda ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bauman M. L., Kemper T. L. Histoanatomic Observations of the Brain in Early Infantile Autism // *Neurobiology*. – 1985. – No. 35. – P. 145–152.
2. Dawson G. Neuropsychology of Autism: A Report on the State of the Science // *Journal of Autism & Developmental Disorders*. – 1996. – No. 26. – P. 301–308.
3. Frith U., Snowling M. Reading for Meaning and Reading for Sound in Autistic and Dyslexic Children // *Journal of Developmental Psychology*. – 1983. – No. 1. – P. 487–493.
4. Lenneberg E. H. *Biological Foundations of Language*. – New York: Wiley, 1967. – P. 125–130.
5. Minshew N. J. Brief Report: Brain Mechanisms in Autism: Functional and Structural Abnormalities // *Journal of Autism & Developmental Disorders*. – 1996. – No. 26. – P. 317–322.
6. Ozonoff S., Strayer D. L. Inhibitory Function in Nonretarded Children with Autism // *Journal of Autism & Developmental Disorders*. – 1997. – No. 27. – P. 67–73.
7. Rumsey J. M. Conceptual Problem-Solving in Highly Verbal, Nonretarded Autistic Men // *Journal of Autism & Developmental Disorders*. – 1985. – No. 15. – P. 165–172.
8. Tomkins S. E. Script Theory: Differential Magnification of Affects // *Nebraska Symposium on Motivation*. – Vol. 26. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1980. – P. 215–220.